NKMK — yuksak sifat, samaradorlik va ijtimoiy himoya kafolati!

# KONCHILAR HAYOTI

Gazeta 1991-yildan chiqa boshlagan №6 (768), 2024-yil 19-mart facebook.com/nkmkofficial t.me/ngmkofficial instagram.com/nkmk.official www.ngmk.uz

■ Olam nurga to'lsin sen bilan, Navro'z!

# YASHARISH VA YANGILANISH AYYOMI

**Quvondiq SANAQULOV,**
**"Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ Boshqaruvi raisi – Bosh direktori**

**Qadrli hamkasblar!**

Ona tabiat uyg'onib, yurtimizga go'zal bahor kirib keldi. Xalqimiz milliy qadriyat va an'analarni o'zida chuqur mujassam etgan Navro'zi olamni shodu xurram qarshi olmoqda.

Bu yilgi bayram davlatimiz Rahbari qarori bilan "Olam nurga to'lsin sen bilan, Navro'z!" degan bosh g'oya asosida nishonlanayotgani xalqimizga ko'tarinki kayfiyat, shukronalik bag'ishlamoqda.

Fursatdan foydalanib, sizlarni, sizlar orqali barcha hamkasblarimizni, mehnat faxriylarimizni umumxalq bayrami bilan chin qalbimdan tabriklayman.

Forschada "Nav" - yangi, "ro'z" - kun, ya'ni, "Yangi kun", degan ma'noni anglatuvchi Navro'zi olam o'zining boy tarixi, chuqur falsafasiga ega. Uning qadimiyligi, ko'pming yildan buyon boqiy yashab kelayotganini "Avesto" bitiklari, Firdavsiy, Beruniy, Umar Hayyom, Navoiy va boshqa allomalar asarlari orqali ham teran anglash mumkin.

E'tiborli jihati, Navro'zi olam asrlar osha insoniyatni yaxshilikka chorlab kelayotgan bahoriy ayyomdir. Uning zamirida olam ahlini o'zaro totuvlik, do'stlik va hamjihatlikka da'vat etuvchi umuminsoniy qadriyatlar mujassam. Shu bilan birga, xalq orasida sharqona yangi yil, degan ta'rifga ham ega.

Navro'zi olam yer yuzining katta hududida yashayotgan xalqlar tomonidan nishonlanadi. Bizning mamlakatimizda ham dini va millatidan qat'iy nazar turli millat va elatlarga mansub yurtdoshlarimiz, xalqimiz ijtimoiy hayotida muhim ahamiyatga ega umumxalq bayramiga aylandi. Xalqlar o'rtasida o'zaro hamjihatlik, do'stlik, bag'rikenglik munosabatlarini mustahkamlash, ellarni jipslashtirishga xizmat qilmoqda. Muhtaram Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda: **"Navro'z - o'zining o'lmas ruhi, umuminsoniy g'oyalari bilan bashariyat hayotidan tobora chuqur o'rin egallamoqda".**

Mustaqillik yillarida yurtimiz ma'naviy hayotida juda katta o'zgarishlar ro'y berdi. Bir qator tarixiy hujjatlar qabul qilindi va buni quvonch bilan eslaymiz. Jumladan, 1991-yildan e'tiboran 21-mart yurtimizda Navro'z - umumxalq bayrami sifatida nishonlanadi va dam olish kuni, deb e'lon qilingan.

Navro'z 2009-yilda insoniyat madaniy merosining ajralmas qismi sifatida YUNESKO tomonidan umumjahon nomoddiy madaniy meroslar ro'yxatiga kiritilgani, 2010-yil BMT Bosh Assambleyasining 64-sessiyasida 21-mart "Xalqaro Navro'z kuni", deb e'lon qilingani uning xalqaro maydondagi nufuzi yuksalib borayotganligidan nishonadir.




Har yili bu bayramni xalqimiz katta tayyorgarlik bilan kutib olib, munosib nishonlaydi. Uning shukuhidan yoshu qari shodlanib, go'zal tabiat qo'yniga otlanib, qir-adirlar bag'rida, so'lim go'shalarda umumxalq sayillari, bayramlar ko'rinishida tantana qiladi. Bu yil yog'ingarchilik mo'l bo'layotgani, o't-maysalarning yerni yorib chiqqani, serquyosh kunlar yilimiz barakali kelayotganidan dalolatdir.

Zero, xalq kayfiyati, yurt farovonligi, aynan bahorning qanday kelishiga bog'liq. Yoshi ulug'lar bejizga: "Yaxshi yil - bahoridan, yaxshi kun - saharidan ma'lum", deyishmaydi.

Shunday yorug' kunlarga, qutlug' ayyomlarga, tinch-osuda hayotga yetkazganiga har qancha shukronalar aytsak arziydi. Bunda, qalblarga ma'naviy quvvat beruvchi, odamlarni bir-biriga jipslashtiruvchi bebaho qadriyatning o'rni beqiyos.

Jannatmakon yurtimizning har bir go'shasida bo'lgani kabi, Navoiy kon-metallurgiya kombinati bo'linmalari joylashgan bepoyon Qizilqum kengliklari, Nurota tog' tizmalari, Qo'shrabot, G'allaorol, Nurobod adirlarida ham bahor shukuhi, tarovati kezmoqda. Ana shunday quvonchli onlarda 40 dan ortiq elat va millat vakillaridan iborat ahil jamoamiz bilan Navro'zi olamni shodu xurramlik bilan qarshi olayapmiz.

An'anaga ko'ra, bu yil ham bayram oldidan 16-18-mart kunlari butun respublikamizda bo'lgani singari ulkan jamoamiz vakillari ishtirokida hashar uyushtirilib, bo'linmalar hududlari obodonlashtirildi, ariqlar tozalandi, manzarali va mevali daraxtlar, saksovul, gul ko'chatlari o'tqazildi.

Mehr-muruvvat, saxovat va bag'rikenglik ayyomi bo'lgan Navro'z bayrami arafasida kasaba uyushmasi Kengashi bilan birgalikda 400 nafar pensionerlar, muhtoj insonlar, kam ta'minlangan oilalar holidan xabar olinib, ularga oziq-ovqat to'plamlari yetkazib berilmoqda. Ishchi-xodimlar uchun arzonlashtirilgan qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari yarmarkalari, tarixiy joylarga sayohatlar, bayram dasturxonlari tashkil etilayapti.

21-mart kuni barcha bo'linmalarda, Navoiy shahridagi "So'g'diyona" sport-sog'lomlashtirish majmuasida "NKMK" AJ, "NKMK jamg'armasi" DM va "Navoiyuran" DK ishchi-xodimlari, aholi va mehmonlar uchun katta Navro'z sayillari tashkil etiladi.

Sizlarga maroqli bayram shukuhini tuhfa etish uchun ushbu sayillar dasturlaridan xalq va sport o'yinlari, bellashuvlar, kuy-qo'shiqlar, folklor jamoalari chiqishlari, turli ko'rik-tanlovlar o'rin olgan. O'ylaymizki, ushbu bayram dasturlari xalqimizga manzur bo'ladi.

Yana shuni ta'kidlashni istardimki, barcha yo'nalishlar bo'yicha 2024-yilga mo'ljallangan ishlarni boshlab yuborganmiz. Jumladan, investitsiya loyihalarini amalga oshirish, qurilish-bunyodkorlik, ishlab chiqarish ishlari jadal sur'atlarda davom etmoqda. O'tgan davr mobaynida barcha rejalar ortig'i bilan bajarildi.

Fursatdan foydalanib, sizlarga fidokorona mehnatingiz va yutuqlarga qo'shgan hissangiz uchun tashakkurimni bildiraman.

**Aziz hamkasblar!**

Yana bir bor sizlarni tinchlik-totuvlik, farovonlik va mehr-oqibat timsoli bo'lgan Navro'zi olam bilan chin qalbimdan samimiy tabriklayman. Sizlarga mustahkam sog'lik-salomatlik, oilaviy baxtu saodat, xonadonlaringizga fayzu baraka tilayman.

Navro'zi olam yurtimizga, har bir xonadonga baxt va quvonch, mo'l-ko'lchilik olib kelsin!

■ Yangiliklar. Xabarlar.

## CHIQINDI XO'JALIGINING EKOLOGIK REABILITATSIYASI

**"Qizilqum" kon boshqarmasi 1-gidrometallurgiya zavodining umumiy maydoni 630 gektar bo'lgan 7 ta xaritadan iborat chiqindi xo'jaligi quvvatini (sig'imini) oshirishning texnik iqtisodiy asoslari ishlab chiqilgan. Zarafshon qurilish boshqarmasi jamoasi to'g'onlarni qurish, 1-7 va 2-sonli xaritalarni birlashtirib, yagona xaritani yaratish ishlarini amalga oshirmoqda.**

"O'zGEORANGMETLITI" instituti bilan birgalikda "2023-2025-yillarda chiqindilarni oqilona saqlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish bilan 1-GMZ chiqindixonasi (xo'jaligi)ning holatini monitoring qilish" mavzusida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Monitoring natijasiga ko'ra, yer osti suvlarining kimyoviy moddalar va radionuklidlar bilan ifloslanishi sodir bo'lmaydi.

Bu loyihaning ro'yobga chiqarilishi chiqindilar ombori quvvatini (sig'imini) oshiradi, zavodning uzluksiz ishlashini ta'minlaydi va chiqindilarning atrof-muhitga nojo'ya ta'sirini kamaytiradi.

## PROFESSOR-O'QITUVCHILAR KOMBINATDA

**Bugungi kunda "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJda ishlab chiqarish jarayonlariga raqamli texnologiyalar, zamonaviy axborot tizimlari hamda dasturiy mahsulotlarni joriy etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.**

Bu boradagi ishlar bilan yaqindan tanishish maqsadida, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti hamda Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti professor-o'qituvchilari 12-mart kuni kombinatga tashrif buyurdi.

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetida bo'lib o'tgan davra suhbatida bugungi kunda sohada olib borilayotgan ishlar, istiqbolli hamkorlik rejalari muhokama etilib, mutaxassislar o'zaro tajriba almashdilar.

Oliy ta'lim muassasalari vakillari "Muruntov" konida bo'lib, u yerda olib borilayotgan geologik-qidiruv, ma'dan qazib olish va tashish ishlariga zamonaviy raqamli texnologiyalarning joriy etilganligi bilan yaqindan tanishdi.

# OBODLIKDAN KO'NGILLAR SHOD

**Yurtimizga bahor kelishi bilan ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish ishlari avj oladi. Chunki, obodlik bor joyda baraka bo'ladi. Zero, tevarak-atrofimiz, istiqomat qilayotgan manzil-makonlarimizning toza va ko'rkam bo'lishini ta'minlash xalqimizning azaliy odatlaridan. Xonadonimiz, ko'chamiz, mahallamiz va korxonamizni obod etar ekanmiz, hayotimiz ham ko'rkamlashib boraveradi.**

Xalqimizning yurt obodonligi yo'lida hasharlar o'tkazishi hamjihatlik va yaratuvchanlik nishonasidir. Ona tabiatni asrab-avaylash, atrof-muhit muhofazasi va tozaligini ta'minlashga hissa qo'shish "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksionerlik jamiyati mehnat jamoasi uchun an'anaga aylangan.

Havo haroratining ko'tarilishi barchani obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, turli manzarali, mevali daraxtlar va gul ko'chatlari o'tqazishga ruhlantirmoqda. Ayni vaqtda kombinat bo'linmalarida bu ishlarga uyushqoqlik bilan kirishildi.

Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasiga asosan ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash maqsadida, ulkan korxonamizda "Yashil makon" umummiliy loyihasini amalga oshirish bo'yicha tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan. Mazkur loyiha doirasida 2024-yilning 12-martidan 12-apreligacha "NKMK" AJ va uning bo'linmalarida ko'kalamzorlashtirish va obodonchilik ishlari bo'yicha "Dolzarb bir oylik" e'lon qilindi. Joriy yilning bahor va kuz mavsumida Navoiy, Zarafshon, Uchquduq, Marjonbuloq shaharlari, Zarkent qo'rg'oni va Nurota tumanidagi "Pistali" koni hududida, shuningdek, boshqa ishlab chiqarish obyektlarida 370 ming dona manzarali va mevali daraxt ko'chatlari hamda butalar ekish rejalashtirilgan. Ko'chat va butalarning 230 ming tupini o'tqazish bahor mavsumiga to'g'ri kelmoqda.

So'nggi ikki haftada kombinatning barcha kon boshqarmalari, Navoiy mashinasozlik zavodi, Zarafshon qurilish boshqarmasi, Geologiya-qidiruv ekspeditsiyasi, Tarmoqlar va nimstansiyalar sexi, 3-avtokorxona va boshqa bo'linmalarida hududlarni ko'kalamzorlashtirish ishlari amalga oshirilyapti. Bu ishlar, ayniqsa, o'tgan yili foydalanishga topshirilgan Nurota tumanidagi "Pistali" koni, 6-gidrometallurgiya zavodi hududida namunali tashkil etilmoqda. Navoiy sanoat maydoni bo'linmalarining 350 nafardan ortiq ishchi-xizmatchilari Navro'z bayrami sharafiga yurtimizda e'lon qilingan xayriya hasharida qalb amri bilan faol ishtirok etib, ana shu hududni ko'kalamzorlashtirishga katta hissa qo'shdilar. Joriy yil ko'klam mavsumida kombinat bo'linmalarida 121 ming tup, jumladan, "Pistali" koni hududida cho'l sharoitiga mos 12 ming tup daraxt ko'chatlari va butalar ekildi. Muhimi, atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadida bu yerda "Yashil belbog'" barpo etilmoqda. Ekilgan ko'chatlarni parvarishlash "Qizilqum" kon boshqarmasi, kon va zavod rahbariyatining nazoratida bo'ladi. Kon hududini ko'kalamzorlashtirishdek xayri ishlar davom etmoqda.



**A.AXMEDOVA**

**Yurtboshimiz tashabbusi bilan har bir yilni o'ziga xos nomlash va bu davrda e'tirofga molik ishlarni amalga oshirish an'anaga aylangan. Unga ko'ra, 2024-yil "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili", deb e'lon qilindi. Yaqinda Prezidentimiz farmoni bilan bu borada davlat dasturi tasdiqlanib, yuzta maqsaddan iborat bandlar bajarilishi lozim bo'lgan aniq vazifalar belgilab berildi.**

# DAVLAT DASTURI – AMALDA!

Navoiy kon-metallurgiya kombinatida ham bu borada alohida buyruq qabul qilinib, 40 banddan iborat chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Unda tadbirlarni amalga oshirish uchun 70,5 milliard so'm va 109,7 million dollar mablag' sarflanishi ko'zda tutilgan.

Bu mablag'lar inson qadri, yoshlar kasb egallashi, mehr-muruvvat ko'rsatishga qaratilgani alohida e'tiborga molikdir. Misol uchun, oliy ta'lim muassasalarining sirtqi bo'limiga o'qishga kirish uchun yosh xodimlarga tavsiyanomalar berish va korxona hisobidan ularning kontrakt to'lovlarini amalga oshirishga kombinat hisobidan 5,4 milliard so'm ajratish mo'ljallanmoqda. Yoki kombinatda faoliyat yuritayotgan o'rta va quyi bo'g'in xodimlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlashga 12 milliard so'm yo'naltirilayotgani, bu – yoshlarimiz uchun katta imkoniyat va imtiyoz, deganidir. Shuningdek, inson qadrini ulug'lash yo'lida pensionerlarga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotib olish va sog'ligini yaxshilashga 9,8 milliard so'm, kombinatning 6 ming nafar ishchi-xodimlari uchun sayohatlar tashkil etishga 3,5 milliard so'm sarflanadi va shunga o'xshash ijtimoiy yo'nalishlarda yana ko'plab ezgu ishlar amalga oshiriladi.

Respublika davlat dasturida kombinat tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan ikkita band o'rin olgan. Qiymati 109,7 million dollar bo'lgan "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ ishlab chiqarish quvvatlarini saqlab qolish" investitsion loyihasi va kombinatning 3 milliard so'mlik homiylik mablag'lari hisobidan respublika aholisining ichimlik suv ta'minoti darajasini oshirish rejasi shular jumlasidandir.

Ayni paytda kombinat dasturida belgilangan vazifalarni amalga oshirish ishlari boshlab yuborildi. Ular ijrosi doimiy nazoratga olinib, har bir jarayon bosqichma-bosqich davom etmoqda. Ishontirib aytamizki, rahbariyat qo'llab-quvvatlashi va mas'ul ijrochilar sa'y-harakati bilan dasturda ko'zda tutilgan barcha vazifalar o'z vaqtida sifatli bajarilishi ta'minlanadi.

**Asliddin RO'ZIYEV,**
**Ma'naviyat va ma'rifat markazi mutaxassisi.**



■ Olam nurga to‘lsin sen bilan, Navro‘z!

**Bahor faslining kirib kelishi har safar kechikadimi yoki erta keladimi, u inson kayfiyatiga ko‘tarinkilik bag‘ishlashga xizmat qilaveradi. Endigina kurtak ota boshlagan va zumda ko‘zlarni quvontirib qiyg‘os gullagan daraxtlar, yashil maysa qoplagan dalalar barchasi o‘z ko‘rki, tarovatini ko‘z-ko‘z qilishga oshiqadilar. Tabiatning butun go‘zalligini ishga solib, namoyish etib tugatolmayotgan bahor inson qalbiga umid bag‘ishlaydi, ezgu orzu-maqsadlar sari chorlaydi. Bu fasl onalarimiz, qizlarimiz, dilbar ayollarimizning bayrami bilan, ularni ulug‘lash bilan boshlanadi. Sababi ayol zotining o‘zi bahor bilan uyg‘un zotdir!**

# KELDI OLAM NAVRO‘ZI

Bahor fasli bayramlar, marosimlar oyidir. Sharq xalqlari bu faslni o‘zgacha kayfiyatda kutib olishadi. Yil boshi hisoblangan Navro‘z o‘zbek xalqining madaniy turmush tarzida katta ahamiyat kasb etadi.

Navro‘z turkiy zamin xalqlarining milliy bayramlaridan hisoblanib, uning bayram sifatida nishonlanishi qadim zamonlarga borib taqaladi. “Avesto” va Firdavsiyning “Shohnoma”sida, deyarli barcha qadimiy manbalarda Navro‘zning paydo bo‘lishi shoh Jamshid nomi bilan bog‘langan. Yetti yuz yil hukmronlik qilgan shoh Jamshid ko‘p yaxshi ishlarni amalga oshiradi. Odamlarga kasb o‘rgatadi, temirni eritib qurol yasattiradi, bog‘lar barpo etadi, insonning yashashi uchun zarur bo‘lgan jamiki ishlarga rivoj beradi. Nihoyat barcha yaxshi amallarni bajargach, taxt yasab unda osmonga ko‘tariladi va o‘sha kundan Navro‘z bayrami nishonlangan ekan. Ushbu afsonaning talqiniga ko‘ra Jamshid taxtda xalqning arzu dodini eshitadi, ishlariga kushoyish beradi, Navro‘z shu tarzda boshlangan, deyiladi.

Alisher Navoiyning “Tarixi muluki ajam” asarida Jamshid haqida quyidagicha ma’lumot beriladi: “Ba’zi ani Tahmurasning qardoshi debdurlar va ba’zi qardoshining o‘g‘li. Chun saltanatqa o‘lturdi, jahon mulkin adl va dod bila tuzdi. Va husnu jamolda dilpazir va fazlu kamolda benazir erdi. G‘arib ixtiro’lar qildi... uluq binoye soldikim, holo osori va nishonalari borkim, odamizot andoq yasamoq mahol ko‘runurkim, kishi ko‘rmaguncha bovar qilmas. Va ani chihil minor derlar. Chun bu imorat tugandi, olam salotin va ashrof va akobirin yig‘ib, anda azim jashn qildi. U vaqtkim, quyosh nuqtai e’tidoli rub’ig‘a tavil qilib erdi, ul binoda taxt ustiga o‘lturub, adolat siyt va sadosin olamg‘a muntashir qildi va ul kunning otin Navro‘z qo‘ydi”.

Mazkur ma’lumotlarda kun va tun tengligiga ishora qilinadi. Quyoshning hamal burjiga kirishi, kunlarning uzayib, quyosh o‘z tafti bilan yer yuzini isita boshlashi, tabiatning jonlanishi bilan bog‘liq tarzda tushuniladi. Turkiy xalqlar yashaydigan ulkan hududni piyoda bosib, ulardagi o‘ziga xoslikni kuzatgan Mahmud Koshg‘ariy ham o‘zining “Devonu lug‘otit turk” asarida xalq yaratgan fasllarga oid turli qo‘shiqlarni, mehnat jarayonida yaratilgan to‘rtliklarni keltiradi, bahorni butun jonivorlaru qushlari bilan ta’riflaydi:

*Qush, qurt qamug‘ tirildi,*
*Erlik tishi terildi,*
*O‘kur olib tarildi,*
*Yinqa olib kirgusiz.*

(O‘lik holda bo‘lgan hama qurtu qushlar bahor nasimini iskab qayta jonlandilar. Erkak, urg‘ochilari to‘planishdi. To‘da-to‘da bo‘lib o‘ziga mos joyga tarqaldilar. Endi ular qorong‘i inlariga qaytib kirmaydilar).

*Alin to‘bu yashardi,*
*O‘rut o‘tin yashurdi,*
*Ko‘ling suvin kushardi*
*Sigir, buqa mungrashur.*

(Tog‘ tepalari rang-barang chechak va ko‘katlar bilan bezandi. Qurigan eski o‘tlarni yashirib yubordi. Ko‘llar suvlari to‘lib toshdi. Sigir, buqalar shodlikdan mastlarcha mangrashmoqda).

XII asrda yashab ijod etgan adib Nosiriddin Rabg‘uziyning ushbu she’riy misralarida tabiatdagi jonlanish yuksak badiiyatda o‘z ifodasini topgan:

*Kun hamalg‘a kirdi ersa, keldi olam navro‘zi,*
*Kechti Bahman zamharir qish, qolmadi qori, buzi.*
*Kun kela ming ko‘rki ortib, tirilur o‘lmish jahon,*
*Tong pazirlab naqshi birla bezanur bu yer yuzi.*

Shoir Navro‘z so‘zini ishlatganda, uning lug‘aviy ma’nosiga ham ishora qilib, olam uchun yangi kun boshlandi, deya bahoriy nabotot, hayvonot olamini bir-bir tavsiflaydi. Bahor ta’rifi barcha davr shoirlari ijodida o‘zining go‘zal ifodasini topgan, ijodkorlarning ijodiga ilhom, yaratgan asarlariga mazmun bag‘ishlagan.

Umuman olganda, Sharq xalqlarining bahorni orziqib kutishlariga sabab, odamzotning Ona yerga, o‘z ne’matlari bilan bahramand etuvchi muqaddas zaminga, tiriklik manbalari bilan chambarchas bog‘liqligidadir. Shuning uchun Navro‘z yangi yilning boshlanishi, yilboshi sifatida nishonlanadi, kelayotgan yildan o‘z mehnatiga yarasha ne’matlar kutadi. Navro‘z o‘zida qadriyatlar, milliy urf-odatlarni jamlab kelayotgan qutlug‘ bayram. Qariyalarni e’zozlash, bemorlar holidan xabar olish lozimligini yana bir karra yodga soladigan, faqatgina ezguliklar ulashadigan, gina kuduratlar unutiladigan ayyomdir. Shuning uchun shoir ta’biri bilan aytganda yashayotgan har bir kunimiz navro‘z bo‘lsin!

**Ozoda TOJIBOYEVA,**
**Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi.**

# BAG‘RIKENGLIK VA SAXOVAT BAYRAMI

## Tibbiy-sanitariya bo‘limi va “Metallurg” profilaktoriysida keng nishonlanadi

**Ishchi-xodimlarni ijtimoiy himoyalash, ularga samarali ishlashlari va dam olishlari, sog‘liklarini mustahkamlashlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, jamoalarda ommaviy madaniy tadbirlarni tashkil etish hamda sport musobaqalarini kuchaytirish kasaba uyushma qo‘mitalarining asosiy vazifasidir.**

Tibbiy-sanitariya bo‘limi, “Metallurg” profilaktoriy-sanatoriysining 1 ming 400 nafardan ortiq shifokorlari va xizmatchilari, shuningdek, tibbiyot sohasining 500 nafarga yaqin faxriylarini o‘z atrofiga birlashtirgan qo‘mitamiz faoliyatida kasaba uyushmalari eng ommaviy jamoat tashkiloti ekanligini namoyon etib kelmoqda. Zero, bu, Konstitutsiyamizning 59-moddasida belgilab qo‘yilgan “Kasaba uyushmalari xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini va manfaatlarini ifoda etadilar va himoya qiladilar”, degan tamoyilning amaliy ifodasidir.

Qo‘mita mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi, korxonada turli ko‘ngilsiz holatlar ro‘y berishining oldini olishga alohida e’tibor berayapti. 55 nafar tibbiyotchilar ana shunday mas’uliyatli ishga safarbar etilgan. Davr talabidan kelib chiqib, xodimlarimiz o‘rtasida sportni tobora jonlantirayapmiz. Jamoamiz sportning futbol, voleybol, shaxmat, shashka, suzish turlari bo‘yicha kombinat va “NKMK jamg‘armasi” DM tomonidan o‘tkazilayotgan musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etmoqda.

O‘tgan yili Tibbiy-sanitariya bo‘limi ma’muriyati va kasaba uyushma qo‘mitasining sa’y-harakati bilan bo‘limda yana bir sport zali ta’mirlanib, kasaba uyushmasi hisobidan trenajorlar va sport anjomlari olib berildi. Tibbiy-sanitariya bo‘limi xodimlariga ish joylarida qulaylik yaratish maqsadida, kasaba uyushmasi tomonidan 5 dona mikroto‘lqinli pech, 5 dona termopot, 10 dona elektr choynak, 5 dona konditsioner, bemorlar uchun elektr plita, 10 ta nogironlar aravachasi, 3 ta isitish pechi tarqatildi.



2023-yilda kasaba uyushma a’zolariga “Nurobod”, “Metallurg” profilaktoriylari, “NKMK”, “Shaxand” sanatoriylari, “To‘dako‘l” dam olish maskani, Kislovodsk shahridagi “O‘zbekiston” sanatoriysi, “Gornyak pansionati” majmuasi, “Issiqko‘l” sanatoriysi va respublikamizning nufuzli dam olish hamda sog‘lomlashtirish muassasalariga umumiy narxi qariyb 1,8 milliard so‘m bo‘lgan 485 ta yo‘llanma berildi.

Xodimlarimizning 319 nafar farzandlari yozgi ta’til mavsumida “Sarmish”, “Bolajon”, “So‘g‘diyona”, “Pahlavon”, “Kelajak”, “Bulbulcha”, 33 nafar yuqori sinf o‘quvchilari “Mash’al” mehnat-rohat oromgohlarida dam oldilar.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, yaqinda TSB va “Metallurg” profilaktoriysi xotin-qizlari ishtirokida 8 mart bayrami keng nishonlandi. 10 nafar xotin-qizlarimiz bayram munosabati bilan tashakkurnoma va qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlandilar, 16 nafar xotin-qizlarning Samarqand va Toshkent shaharlarining diqqatga sazovor joylariga sayohatlari uyushtirildi.

Ayni kunlarda qo‘mitamiz tomonidan bahor va uyg‘onish ayyomi Navro‘zi olam shodiyonalariga qizg‘in tayyorgarlik ko‘rilayapti. Saxovat va bag‘rikenglik bayrami munosabati bilan bo‘linmalarda milliy taomlarimiz bilan to‘la dasturxonlar yozilyapti, ijtimoiy himoyaga muhtoj xonadonlarga oziq-ovqat to‘plamlari tarqatilayapti. Nasib bo‘lsa, Navro‘z munosabati bilan kombinat bo‘linmalari o‘rtasida milliy urf-odatlar namoyishi va bahoriy taomlar tayyorlash yuzasidan o‘tkaziladigan an’anaviy tanlovda faol qatnashib, har doim bo‘lganidek, faxrli o‘rinlardan birini egallaymiz.

**Mohira JO‘RAYEVA,**
**1-kasaba uyushma qo‘mitasi raisi.**

# YASHARISH VA YANGILANISH FASLI

**Nima uchun biz Navro‘zni doimo sog‘inib, intizorlik bilan kutamiz? Chunki Navro‘zning jozibasi, shukuhi boshqacha. Shu bois, uni o‘zgacha intiqlik bilan kutamiz. Tashrif buyurganida esa quvonchu shodliklarga to‘lamiz. Navro‘z bahorda kun va tunning baravar kelishidir. Ba’zi Sharq xalqlarida ushbu bayram dasturxoniga yetti xil mevali daraxt novdasi qo‘yilgan. Bu bilan keyingi Navro‘zgacha shu daraxtlar mevalaridan tanovul qilish nasib etsin, deyilgan.**

Navro‘z – millatlararo ahillik va birdamlikka, o‘zaro hamkorlikka, hamjihatlikka chaqiruvchi ayyomdir. Navro‘z bu xalqimizning ming yillik merosidir. Navro‘z deganda - yangi ko‘katlar, ko‘ksomsa, ko‘kchuchvara, sumalak, go‘ja kabi bahor taomlari ko‘z oldimizga keladi. Navro‘zga doir kechagi kunlarni yodga olsak, u taqiqlanib, sumalaklar ariqqa to‘kildi. Bayram qiluvchilarga malomat toshlari otildi. Ming bor shukrlar bo‘lsinki, Istiqlol tufayli, respublikamizning Birinchi Prezidenti shijoatlari sababli xalqimiz Navro‘zni yana bayram qilish baxtiga sazovor bo‘ldi. Mustaqillik tufayli Navro‘z qaddini yana tik ko‘tardi. Poklanish, yangilanish, to‘kin-sochinlik shodiyonasi bo‘lgan Navro‘zni bugun yurtimizning musaffo tabiatida, kundan-kunga yashnayotgan obod o‘lkamizning chiroyida ko‘rayapmiz. Tabarruk otaxonlar Navro‘zi olamda yurtimizga tinchlik, elimizga farovonlik, dasturxonimizga qut-baraka olib kelsin, deb ezgu-tilaklar qilishadi. Ko‘kni ko‘zga surgan momolarimiz esa “omonlik, omonlik, hech ko‘rmasin yomonlik”, deya niyat qilishadi. Navro‘z bilan bog‘liq tadbirlar, kurash, ko‘pkari, poyga kabi ko‘plab xalq o‘yinlari, rasm-rusumlar, urf-odatlar yana tiklandi. Shuning uchun bugun biz ezgulik tantanasi hamda azaliy qadriyatlarimiz ramzi bo‘lgan, ajdodlarimizdan meros qolgan betakror bayramimiz borligidan faxrlanib, barchamizni shunday yorug‘ kunlarga, tinch-osuda hayotga, yaxshi kunlar rohatini ko‘rishga yetkazgan mustaqilligimizga cheksiz shukronalar aytamiz.

Darhaqiqat, Navro‘z mehr-oqibat tantanasidir. Bu kunda yoshlarning keksalar, xastalar xolidan xabar olishi savob sanaladi. Ona tabiatimiz uyg‘onib, butun olam yam-yashil liboslarga burkangan, bepoyon dasht-u dalalar, qiru-adirlar, tog‘u bog‘lar o‘zgacha chiroy ochib, har bir inson qalbiga zavq ulashgan, ko‘klam nafasi qalblarimizni beg‘ubor his-tuyg‘u va orzularga to‘ldirgan shunday quvonchli kunlarda barchamiz Navro‘z bayramini ko‘tarinki kayfiyat, cheksiz shodu xurramlik bilan kutib olmoqdamiz.

Orzu-niyatlarimiz ushalsin, O‘zbekistonimiz yanada obod va farovon bo‘lsin! Navro‘zi olam barchamizga muborak bo‘lsin! Yoki buyuk bobomiz Alisher Navoiy aytganlaridek

***Har kuning qadr o‘lubon,***
***Har kuning o‘lsun Navro‘z!***

**A.AXMEDOVA.**

■ Из подразделений комбината

# ПРЕДСТАВЛЯТЬ КОМБИНАТ –

## ЭТО ПОЧЁТ И БОЛЬШАЯ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ

**Акционерное общество «Навоийский горно-металлургический комбинат» - одно из крупнейших промышленных предприятий Узбекистана. В его структуру входят десятки различных служб и подразделений, каждое из которых выполняет существенную роль в общем деле. Пожалуй, самой малочисленной, но, тем не менее, важной составляющей данной структуры является Представительство комбината в г.Ташкенте, созданное в 1994 году.**

Его основание было вызвано необходимостью обеспечения оперативной связи руководства комбината с Администрацией Президента и Кабинетом Министров Республики Узбекистан, Сенатом Олий Мажлиса, министерствами, ведомствами и ассоциациями для решения насущных вопросов, связанных с хозяйственной деятельностью НГМК, поскольку руководству комбината не всегда удаётся своевременно прибыть в Ташкент из Навои. В таких ситуациях работники Представительства выступают от имени руководства НГМК на совещаниях и встречах в различных республиканских ведомствах. И за 30 лет работы Представительства комбината в Ташкенте здесь проделана огромная работа.

Коллектив Представительства небольшой – в его состав под руководством Шухрата Шукуруллаевича Саттарова входят ещё семь специалистов, каждый из которых отвечает за определённое направление деятельности.

- Перед нами поставлены важные и ответственные задачи, - говорит Шухрат Шукуруллаевич. - Среди них организация своевременного обеспечения Правительства Узбекистана, Законодательной и Счётной палат, министерств необходимой информацией и материалами о деятельности комбината; участие в анализе и мониторинге реализации Инвестиционной программы совместно с инвестиционным департаментом комбината в Министерстве инвестиций, промышленности и торговли и Министерства горнодобывающей промышленности и геологии Республики Узбекистан; участие в процессах мониторинга локализации и программ локализации согласно утверждённому графику; участие в совещаниях и презентациях по вопросам повышения эффективности производства продукции и снижения её себестоимости; в обсуждении вопросов своевременного достижения показателей, установленных в вопросах трансформации; защита, совместно с руководством комбината, стратегических перспектив развития НГМК в Администрации Президента и у советника Президента по вопросам экономического развития. Также мы ведём контроль за переводом валютных платежей комбината в Национальный банк внешнеэкономической деятельности Республики Узбекистан; мониторинг кредитов, полученных в коммерческих банках страны; предоставляем финансовые документы (выписки и т.п.) ответственным работникам Министерства экономики и финансов Республики Узбекистан.

В месяц работники Представительства участвуют в 7-8 оперативных совещаниях в различных министерствах. К каждому совещанию нужно быть подготовленным, нужно быть в курсе всех сторон деятельности комбината, чтобы грамотно отвечать на вопросы. Поэтому Представительство постоянно находится на связи с руководством и специалистами комбината, чтобы не только получать у них информацию, но и компетентно её представить.

В круг обязанностей работников Представительства также входит участие в представлении комбината на международных промышленных выставках, ярмарках, рекламных кампаниях, проводимых в республике; защита интересов АО «НГМК» по поручению Генерального директора-Председателя правления перед государственными органами, организациями, предприятиями, учреждениями на территории республики; совершенствование формы развития и углубления сотрудничества между предприятиями и организациями; приём, наблюдение, техническое и иное обслуживание международных наблюдателей, присутствующих на политических мероприятиях (референдум, президентские и парламентские выборы), проводимых на уровне республики.

Кроме того, Представительство принимает зарубежные делегации, которые приезжают ознакомиться с деятельностью НГМК. Для этих целей имеется специально оборудованный зал, презентационные материалы, видеоролики. А также работники Представительства выступают с презентацией о деятельности НГМК на встречах с иностранными делегациями в министерствах, наряду с другими предприятиями страны.

При Представительстве в Ташкенте есть и гостиница, которой долгие годы заведует Ирина Богданова. Благодаря её хозяйственности, ответственности, большому опыту работы здесь созданы комфортные условия для проживания командированных работников комбината.

- Ещё одним направлением нашей деятельности является работа с Федерацией плавания Республики Узбекистан, председателем которой является Генеральный директор-председатель правления АО «НГМК» К.Санакулов, а первым заместителем Председателя - руководитель Представительства, то есть я, - рассказывает Шухрат Шукуруллаевич. – Мы принимаем участие в формировании годового бюджета Федерации плавания Узбекистана, в разработке графика участия спортсменов в ежегодных календарных соревнованиях, в совещаниях, посвящённых дальнейшему развитию массового спорта в стране, в проведении международных соревнований в целях развития водных видов спорта в республике, оказываем спонсорскую поддержку спортивных соревнований.

Надо отметить, что за последние годы пловцы Узбекистана стали показывать хорошие результаты на соревнованиях различного уровня в таких водных видах спорта как плавание, синхронное плавание, прыжки в воду, плавание на открытой воде.

Только в 2022-2023 годах юношеские и взрослые сборные команды Узбекистана достойно защитили честь Родины на



**На фото: Ш.Саттаров**

Международных спортивных играх «Дети Азии-2022» во Владивостоке (Россия) и «V Игры Исламской солидарности» в Конья (Турция). В частности, на «Дети Азии-2022» завоёваны 1 серебряная и 2 бронзовые медали, а на «V Играх Исламской солидарности» - 2 золотые, 5 серебряных и 5 бронзовых наград.

Призёрам и их тренерам торжественно вручены благодарственные письма от Федерации плавания Узбекистана, материальное поощрение и путёвки в санаторий «Заамин» с членами семьи - один из самых живописных уголков Узбекистана. Такое внимание стало отличным стимулом для их стремления к дальнейшим победам.

Помимо этого, представитель сборной Узбекистана Игорь Мялин вышел в финал чемпионата мира по прыжкам в воду с 10-метровой вышки и стал лицензиатом Олимпийских игр, которые состоятся в 2024 году в Париже. Отметим, что лицензия на Олимпийские игры в прыжках в воду стала первой в спортивной истории Узбекистана.

В Представительство АО «НГМК» в Ташкенте обращаются и пенсионеры комбината, проживающие в столице. Для них – это островок родного предприятия, коллеги, которые всегда им рады.

- Пенсионеров комбината в Ташкенте 63 человека, - говорит работник Представительства Диляра Мамурова. – Мы оказываем им помощь в оформлении документов для получения материальной помощи, направления на лечение в медицинские учреждения, обеспечиваем их участие в различных праздничных мероприятиях, проводимых на территории республики, организуем своевременную доставку праздничных подарков, выделяемых комбинатом. Благодаря этому они знают, что о них помнят и ценят вложенные в комбинат знания и многие годы плодотворного труда.

Вышесказанное, лишь малая часть ежедневного, кропотливого и очень ответственного труда работников Представительства АО «НГМК». И, как и любое подразделение комбината, они вносят весомый вклад в наше общее дело, плодотворно работают на благо развития комбината, укрепления экономики нового Узбекистана и покорения новых рубежей.

**Насиба ШАМУРАТОВА.**

■ E’tirof

**Nafosat va go‘zallik ayyomi arafasida “Zarmitan” koni laboranti Mastura Qudratova “Mo‘tabar ayol” ko‘krak nishoni bilan taqdirlangani, yana davlatimiz rahbari ishtirok etadigan respublika tadbiriga taklif etilgani haqidagi xushxabar barchamizni to‘lqinlantirib yubordi. Janubiy kon boshqarmasining oddiy, mehnatkash ayolining bunday mukofotga loyiq topilgani quvonarli, albatta. Bu, hech shubhasiz, yurtimizda xotin-qizlarimizning kamtarona mehnati har doim e’tiborda ekanidan dalolatdir.**



# MEHNATNING MEVASI SHIRIN BO‘LADI

Navoiy kon-metallurgiya kombinatida o‘n besh yildan buyon ishlab kelayotgan opani zarkentliklar yaxshi taniydi. Boyovutdan Qo‘shrabotga kelin bo‘lib tushgan. Nihoyatda ochiq ko‘ngil, oqila, xokisor ayol. O‘z ishining ustasi. Hamma hurmat, havas qiladi. Besh farzandning onasi, namunali oila sohibasi.

Quvonarli jihati, turmush o‘rtog‘i Sobir aka ko‘p yillar kombinat tizimida ishlab, pensiyaga chiqqan. Bugun sulola ishini o‘g‘illari Jasur, Jahongir, qizi Madina davom ettirmoqda. Demakki, qariyb butun oila kombinatda ishlab, ulkan korxona rivojiga sidqidildan xizmat qilib kelayapti. Har qanday oilaga bundan ortiq baxt, ta’rif bo‘lmasa kerak.

Ayniqsa, opaning ko‘p yillik mehnati o‘z rag‘batini topgani, munosib nomzod sifatida tanlangani va mukofot o‘z egasiga berilganini eshitib, butun kasbdoshlari, tanigan-bilganlar, oilasi qanchalik xursand bo‘lganini so‘z bilan ifodalash qiyin. Yaqinda Navoiy viloyati hokimi o‘rinbosari – Oila va xotin qizlar boshqarmasi boshlig‘i M.Mamadiyarova M.Qudratovaga “Mo‘tabar ayol ko‘krak nishonini tantanali tarzda topshirdi.

* * *

Boshqarma idorasiga borib, nogohon Mastura opaga duch keldim. Rahbariyat tabriklash uchun chaqirgan ekan. Opani “Mo‘tabar ayol” ko‘krak nishoni bilan taqdirlangani bilan tabrikladim. Opa juda hayajonda edilar. Ko‘ngli to‘lib turgan ekanmi, yig‘lab yubordi. Uning jiqqa yoshga to‘la ko‘zlariga boqdim. Sezdimki, kipriklaridan, yonoqlaridan shoda-shoda bo‘lib oqayotgan tomchilar, bu – haqiqiy sevinch yoshlari edi. Bunday shirin lahzalarga yetganlar bor, yetmaganlar bor. Odam taftini odam oladi. Ikkimiz ancha muddat dardlashib qoldik.

- Kombinat rahbariyatiga rahmat! Hammasi ularning e’tibori tufaylidir. Bu yilgi 8 mart mening hayotimda bunday quvonchli keldi, mendek oddiy bir inson shunday rag‘batlarga erishadi, deb o‘ylamagandim. Bilasizmi, bu elga kelin bo‘lib tushib, shunday korxonaga ishga kirib kam bo‘lmadim. Shu kunlarga yetkazganiga shukronalar aytaman.

- Bunday baxt har kimga ham nasib etavermaydi, opa, - dedim.

- Toshkentga ham chaqirilganman. Lekin ochig‘i juda hayajondaman. Chiroyli davra, butun mamlakatimizdan kelganlar safida mendek qishloq ayolining ishtiroki qanday bo‘larkan! Hech tasavvur eta olmayapman.

Unga dalda berdim:

- Hammasi zo‘r bo‘ladi. Chunki, Siz bunga arziysiz, opa!

...Xayrlashdik. Opa o‘z yo‘liga ravona bo‘ldi. Bir muddat havas bilan uning ortidan qarab qoldim...

* * *

Rahmatli otam ko‘p aytardi: “Qizim, hayotda hech qachon birovlarga hasad qilma, havas qil. Shunda, senga jannat eshiklari ochiladi”. Bu hikmat haqida hozirgacha o‘ylab, undan mantiq izlayman. Eskilar ming marta haq. Odam hamisha havas bilan yashashi kerak. Shu bois, men havas qilganlar orasida Mastura opa ham bor. Bu opadan, oilasidan har doim ibrat olgim keladi.

* * *

Opani ko‘p yillardan buyon taniyman. Oddiy o‘zbek ayoli. Hamma qatori subhi-azondan turadi. Sigir sog‘adi. Hovli supuradi. O‘choq boshida kuydir-pishir, nonushta tayyorlash va boshqa ishlar uning zimmasida. Shu odatga o‘rgangan. Hattoki, hamsoya-tevarak deganlar ham bo‘ldida opa, endi bu yumushlarni kelin-qizlarga bering. Akam bilan sayru sayohat qilib, umrning qolgan qismini mazmunli o‘tkazing, degani befoyda. Oilam, farzandlarim, deb o‘zini o‘tga ham, cho‘g‘ga ham urgani-urgan.

Mana shu mehnatlari ortidan farzandlarini uyli-joyli qildi. O‘g‘illarini yaxshi oilalardan uylantirib, qizlarini tagli-tugli joylarga uzatdi. Adiba, Dildora, Madina – uchala qizi ham tushgan joyini gullatib, hammasi o‘zidan tinchigan.

Hovli xursandchilik, nabiralar shodon kulgusiga to‘lgan. Ostona hatlab kirar ekansiz, misoli jannatga duch kelasiz. Yog‘ tushsa, yalagudek tozalikdan, saranjom-sarishtalikdan bahri dilingiz yayrab ketadi. Hamma narsa joy-joyida. Xonadon eshigi hamisha mehmonlar uchun ochiq, to‘kin dasturxon do‘stlarga muntazir.

Yumushi qaynaydi subhi azondan,
O‘choqning boshiga cho‘kadi behol.
Hech biri kelmaydi qora qozondan,
Tandirning boshida adl qaddi dol.

**Dildora ATABAYEVA,**
**Janubiy kon boshqarmasi Axborot va ma’naviyat-ma’rifat guruhi rahbari.**

■ “Navoiyuran” davlat korxonasida

# INNOVATSION BURG‘ILASH ISHLARI AMALGA OSHIRILMOQDA

**Konchilik sanoati tabiiy resurslarga boy O‘zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Qizilqum hududidan qazib olinadigan tabiiy uran mamlakatimiz eksport daromadining salmoqli ulushini tashkil qiladi. Davlatimiz rahbarining boshchiligida so‘nggi yillarda uran sanoati va unga aloqador tarmoqlar rivojlanib, xalqaro standartlarga mos boshqaruv tizimi yaratilmoqda. 2030-yilga qadar tabiiy uran mahsulotini ishlab chiqarishni ikki baravarga oshirish bo‘yicha ilgari surilayotgan dasturlar esa bunday ulug‘vor maqsadlarga poydevor bo‘lmoqda.**

Konchilik tarmog‘ining rivojlanishi foydali qazilmalarni izlab topish, geologiya-qidiruv ishlaridan boshlanadi. Mazkur tarmoqni rivojlantirish uchun turli zamonaviy va innovatsion yechimlarni ishlab chiqarishga jalb etish, loyihalarni amalga oshirishda eng zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash, tajribali va ilg‘or kompaniyalarni jalb etish nihoyatda muhimdir. Bu kutilgan samarani berib, yer osti tuproq namunalarining tahlillari natijalari sifatli va ishonchli bo‘lishini ta’minlaydi.

“Navoiyuran” davlat korxonasi ilk bor autsorsing usulida innovatsion burg‘ilash ishlarini amalga oshirishni boshladi. Buning uchun “Innovatsion burg‘ilash kompaniyasi” MChJ qo‘shma korxonasi bilan shartnoma imzolandi. Mazkur hujjatga ko‘ra “Nurota” geologiya-qidiruv ekspeditsiyasining “Omad” va “Kuhnur” konlarida burg‘ilash geologiya-qidiruv ishlari olib borilmoqda.

Rossiya Federatsiyasi tomonidan “Russkaya burovaya kompaniya” MChJ va O‘zbekiston Respublikasi tomonidan “O‘zbek geologiya qidiruv” AJ ishtirokida tashkil etilgan ushbu qo‘shma korxona ikki yil davomida ushbu maydonlarda faoliyat yuritadi. Hozirda 7 ta innovatsion burg‘ilash qurilmalari keltirilgan bo‘lib, har bir uskunaning ish unumdorligi oyiga 2 650 pogonmetrni tashkil qilyapti.

“Innovatsion burg‘ilash kompaniyasi” MChJ QKning burg‘ilash ishlari Kern ko‘taruvchi yechiladigan snaryadlar majmui (SSK)dan foydalangan holda zamonaviy texnologiyalar yordamida amalga oshirilmoqda. Bu esa burg‘ilash quvurlarini tushirib-ko‘tarish ishlari sonini kamaytirish va qazib olinadigan kern namunalarining foiz ulushini, demakki, burg‘ilash unumdorligini oshirish imkonini beradi.

“Kompaniyamiz O‘zbekiston hududida 4 yildan buyon faoliyat yuritib kelmoqda. Bungacha biz Toshkent viloyatining Olmaliq maydonida ishladik. Hozirda Navoiy viloyatining Qizilqum hududida geologiya-qidiruv ishlarini olib borayapmiz. Bu yerda Turkiya texnologiyasi asosidagi 7 ta burg‘ilash qurilmasi joylashgan. Ushbu qurilmalar ikki yadroli quvurdan iborat bo‘lib, bir yadroli quvurlarga nisbatan kern ajratib olish samaradorligi ancha yuqori. Yana bir jihati, zanjirli bo‘lgani uchun ham harakatlanishga juda qulay va belgilangan manzilga qisqa muddatda yetkazish imkoni bor. Bu esa olib kelish va olib ketishda vaqtni tejaydi, qurilma dizel yoqilg‘isida ishlaydi. Buning uchun ortiqcha xarajat qilib, alohida elektr tarmoqlari tortish, elektr muhandislarni jalb etish shart bo‘lmaydi, - deydi burg‘ilash uchastkasi boshlig‘i Vladimir Goncharov. - Burg‘ilash muhandislari va ustalari uchun barcha qulayliklar yaratilgan, ular bu yerda yashamaydi. 12 soatlik ish vaqti tugashi bilan smena almashadi. Ishchilar uchun maxsus yashash va dam olish bazasi tashkil etilgan. Bazada barcha maishiy shart-sharoitlar – ovqatlanish, dam olish, yuvinish, shuningdek, aloqa xizmatlari yo‘lga qo‘yilgan”.

Mazkur Kern ko‘taruvchi yechiladigan snaryadlar majmui - bu nafaqat yer qa’rini qazish, balki burg‘ilash ishlarida burg‘ilash quvurlarini olib tashlamasdan kern namunalarini ko‘tarib olish imkonini beradi. Olmos bilan mustahkamlangan burg‘ilar yuqori samaradorlikni ta’minlaydi va ishlash tezligini hamda unumdorlikni oshiradi. Quduq devori qulamasi uchun tayyorlangan maxsus aralashmalar kern bilan bevosita aloqaga kirishmasligi va unga tegmasligi tufayli ajratib olish ko‘rsatkichi hozirgi 73 foizdan 90 foizgacha yetadi.

Bundan tashqari, burg‘ilash qurilmalarining ustki qismi oson yechib olinadigan metall karkasli yopinchiqlar bilan o‘rab qo‘yilgani burg‘ilash ishlari unumdorligining oshishi hamda qurilmaning ishlash muddati ko‘proq bo‘lishini ta’minlashga xizmat qilmoqda. Shuningdek, burg‘ilash qurilmasini tabiiy iqlim sharoitlarida yog‘ingarchiliklar ta’sirida kelib chiqadigan korroziyalardan saqlaydi va ishchi-xodimlarni ob-havoning og‘ir sharoitlaridan himoya qiladi.

Bugungi kunga kelib Kern ko‘taruvchi yechiladigan snaryadlar majmui qattiq foydali qazilmalarni, shu jumladan, O‘zbekistonda oltinni qidirishda ham keng qo‘llanilmoqda.

**“Navoiyuran” davlat korxonasi axborot PR xizmati.**

■ 2024 – Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili

**Ta’lim, fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsiya jarayonini chuqurlashtirish ishlab chiqarish sanoati uchun ijobiy natijalar beradi. Shimoliy kon boshqarmasida iqtisodiyotning turli jabhalari uchun malakali mutaxassislar tayyorlab berayotgan ta’lim muassasalari bilan hamkorlik keng yo‘lga qo‘yilgan.**



# AVVAL AMALIYOTCHI, KEYIN XODIM

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi Uchquduq sanoat texnikumida ta’lim olayotgan yoshlarning ko‘pchiligi korxonaning bo‘lajak ishchi-xodimlaridir. O‘quv dargohining pedagog va ishlab chiqarish ustalari qatori Shimoliy kon boshqarmasi yetuk mutaxassislari o‘z ixtisosliklari bo‘yicha o‘quvchi yoshlarga dars va o‘quv amaliyotlarini o‘tishadi. O‘quvchilar esa korxonananing turli bo‘linmalarida o‘z kasb va mutaxassisliklari bo‘yicha ishlab chiqarish amaliyotlarini o‘tashlari tashkil etilgan. Hozirgi kunda 100 nafardan ortiq bitiruvchi talaba-yoshlar amaliyotlari davrida korxona va tashkilotlarda o‘z bilimlarini sinab ko‘rishmoqda.

- Talabalarning ixtisoslashgan korxonalarda ishlab chiqarish amaliyotini o‘tashi ularga hayotidagi muhim bosqichga qadam qo‘yish hamda o‘z professional faoliyatini boshlash imkonini beradi, – deydi Uchquduq sanoat texnikumi direktori Sherzod Nazarov. – Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda o‘qitishning amaliy tavsifi yoshlarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili bo‘lib xizmat qiladi. Ta’lim muassasalari bilan korxonalarning integratsion aloqalari jarayonida iqtidorli talabalar tanlab olinadi va ular o‘qishni tugatganidan so‘ng ishga qabul qilinadilar. Bugun mamlakatimizda ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning zamirida ham ana shunday g‘oya bor. Texnikumda 13 ta mutaxassislik bo‘yicha kadrlar tayyorlanadi. Dual ta’limi biz uchun shu o‘quv yilidan yangilik bo‘ldi.

Olis Uchquduq tumani talabalari uchun eng katta ish beruvchi “NKMK” AJ Shimoliy kon boshqarmasi hisoblanadi. O‘tgan ikki yilda o‘quv muassasasining 90 nafardan ortiq bitiruvchisi aynan shu yerga ishga qabul qilingan.

Doston Hamroyev Uchquduq sanoat texnikumini bitirib, kon boshqarmasiga tokar bo‘lib ishga qabul qilingan edi. Ustozlar o‘giti, o‘zidagi izlanish va harakat tufayli mana ikki yildirki, kon jihozlarini ta’mirlash sexida usta lavozimida faoliyat yurityapti. Bugun uning atrofida o‘zi o‘qigan ta’lim muassasasidan kelgan yoshlar kasb sirlarini o‘rganishmoqda.

– Korxonamizda o‘quvchilarni ish bilan ta’minlash, malakalarini oshirib borishlariga qulay imkoniyat yaratish maqsadida ular tajribali ustozlarga biriktirilgan hamda “ustoz-shogird” an’anasi davom ettirilyapti, – deydi Doston Hamroyev.

**Laylo KARIMOVA.**

■ Shaxsiy mulohaza

# HAYOTDA O‘ZNI TOPISHDAN O‘ZNI YARATISH MUHIM

## yoki bizni fikrlashga undovchi suhbat

**Boshqalarni bilmadim, lekin meni ijtimoiy tarmoqlarda, turli davralarda tobora faollashib borayotgan ba’zi yoshlarimizning ajabtovur fikrlari sergaklantiradi. Ular orasida sayoz va to‘mtoq fikrlar shu darajada ko‘pki, ular ko‘ngilga botadi. Savolni o‘rtaga dangal tashlayman: bunga sabab yoshlarimizning matbuotdan yiroqligi emasmi?**

**Bugun biz jamiyatni yangilamoqchimizmi, zamonaviy fikrli, uyg‘oq avlodni voyaga yetkazmoqchimizmi, unda ma’rifatni inkor etmasligimiz lozim. Ma’rifatni hozircha keng tarqatayotganlardan biri matbuot, ha, aynan bosma matbuotdir.**

**Shu o‘rinda, gazeta o‘qish nima uchun kerak, degan savol bilan Janubiy kon boshqarmasi tizimidagi korxona va tashkilotlarda mehnat qilayotgan bir guruh yoshlarga murojaat qildik.**

### MA’NAVIYAT ULAShUVCHI, ZIYO TARQATUVCHI

**Timur QALANDAROV,**
**Yoshlar boshlang‘ich tashkilotlari yetakchisi:**

- Gazeta insonlarning ma’naviyatini, savodxonligini oshiradi. Birinchi navbatdagi eng zarur, kerakli va ishonchli ma’lumotlarni o‘zida aks ettiruvchi manbadir. Qolaversa, davlatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlar to‘g‘risidagi axborotlarni jamiyatga haqqoniy va xolis yetkazib beradi.

Gazeta birinchi galda inson fikr doirasini kengaytirish, ma’naviy ozuqa uchun ham kerak. Har qanday ma’lumotlarning ishonchli manbasi sifatida qaraladi. Masalan, “Yoshlik” ma’naviyat ulashuvchi, ziyo tarqatuvchi jurnal, doim kuzatib boraman.

Mamlakat qudratli, insonlar boy bo‘lishi mumkin. Lekin ma’naviyati bo‘lmasa, u yuksalmaydi, ya’ni qashshoqlikka yuz tutadi.

### GAZETANI O‘QISH SHART

**Valijon TO‘XLIYEV,**
**Putur yetkazmay tekshirish laboratariyasi xodimi:**

- Tog‘am jurnalist! Shuning uchun bu kasb haqida o‘zimga xos tasavvurga egaman. Bilishimcha jurnalistika ikkiga - axborot va tahlil jurnalistikalariga bo‘linadi.

Fikrimcha gazetalarda sharh, tahliliy maqolalar chop etish kerak. Masalan, biror yangi qonun chiqdi yoki biror voqea sodir bo‘ldi. Bu — yangilik. Uning odamlarga, mavjud tizimga, jamiyatga qanday aloqasi borligi yoki bo‘lishi mumkinligi sharhlansa, tahliliy maqola yuzaga keladi. Yangilik texnologiyalar vositasida ommaga tez yetib boradi. O‘quvchilarning barchasi uni gazetalarda yana o‘qishni istaydi, deb qat’iy aytolmayman. Ammo unga yozilgan izoh yoki sharh ko‘p narsani oydinlatishi mumkin. Yangilikni har kim yetkazishi mumkin, sharhni har kim ham yozolmaydi. Bu mas’uliyatni hammaga ham yuklab bo‘lmaydi. Ishonchli manbalar bu usulni qo‘llab, o‘quvchilar e’tiborini tortsa, nazarimda, uni mutolaa qiluvchilar ko‘payadi. Tahlil, sharh, izoh — bular odamlarni o‘ziga tortadi. Soddalashtirilgan narsalarni xush ko‘ruvchilar ko‘p bo‘lsa kerak.

Keyingi masala — matbuot va o‘quvchi robitasi. Ko‘pchilik kioskka borib gazeta xarid qilishga erinsa kerak. Xo‘sh, unda nima qilish kerak? Bu borada gazetaning elektron shakli qo‘l keladi, deb o‘ylayman.

Shunday ekan, ijtimoiy tarmoqni kuzatish barobarda gazetani o‘qish ham shart.

### SO‘Z ERKINLIGI, INSON ERKINLIGI

**Eldor NORCHAYEV,**
**Atrof-muhit nazorati byurosi muhandisi:**

- To‘g‘risini aytsam, gazeta o‘qish kerak, deb bilaman. Lekin, keyingi paytlar gazetachilik sha’niga ijtimoiy tarmoqlar orqali turli bo‘htonlar uyushtirilmoqda. Bu yaxshi emas. Chunki, matbuot va so‘z erkinligi – bu inson erkinligi. Inson o‘z huquq va manfaatlariga talabgor bo‘lishi uchun eng avvalo, ularni izhor qilish huquqiga - so‘z erkinligiga ega bo‘lishi lozim.

Matbuot va so‘z erkinligi ta’minlangan yurtda tafakkur rivojlanadi. So‘z erkinligini bo‘g‘adigan jamiyat o‘z ildiziga bolta urayotgan, o‘zi ichadigan daryoni quritayotgan, amaldorlarining qalloblik botqog‘iga botishining oldini oladigan va xavfdan ogoh etadigan jarchini nochor holga solayotgan, ma’naviy dunyosini el-ulusdan kelayotgan hikmatlardan mahrum etayotgan, demakki, o‘zini fikrsizlik, turg‘unlik o‘pqoniga — tanazzulga sudrayotgan bo‘ladi.

### ASLIDA ASLIYATNI ANGLASH DEMAK

**Iroda RAHMONOVA,**
**Ofis-menedjer bo‘limi xodimi:**

- Gazetani muntazam o‘qib borish tarafdoriman. Gazetaga obuna bo‘lmayman, deganlarni ko‘proq gazeta o‘qishga chaqiraman. Chunki umuman gazeta va kitob o‘qimaydigan odamdan ma’naviyatli insonlar chiqmaydi. Muntazam o‘qigan odamda yuksalish, o‘zgarish, o‘zini anglash bo‘ladi.

Nega bu mavzuga to‘xtaldik? Birinchidan, “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati tizimidagi barcha boshqarmalarda axborot va ma’naviyat-ma’rifat guruhlari hamda yoshlar yetakchilari faoliyat yuritmoqda. Ularning asosiy faoliyati kombinat tizimida mehnat qilayotgan ishchi-xodimlarning ma’naviy saviyasini yanada boyitish sanaladi. Shu yo‘l bilan ularning mehnatiga zimdan nazar soldik. Ikkinchidan, erkin matbuotsiz va jasur jurnalistlarsiz korrupsiya avjiga chiqadi. Nomigagina ishlaydiganlar, qalloblarning borligi bir fojia bo‘lsa, ularning davralarning to‘riga, odamlarning mehriga da’vogar bo‘la boshlashi ikkinchi fojia sanaladi. Demak, fikrlash va o‘z fikrini dadil bayon etish insonni shaxsga aylantirishi nuqtai-nazaridan kelib chiqib, ularning bu boradagi dadilligiga ham e’tibor berdik.

Unutmang, o‘zligini anglagan, uyg‘oq xalq o‘zini ham, davlatini ham, mamlakatini ham anglaydi. O‘z qadrini ham, yurt nufuzini ham baland qo‘yadi.

**Suhbatni Mansur HUSANOV yozib oldi.**

■ Reportaj



**Ustozlardan biri Zarafshon shahrida kombinat qurib bergan zamonaviy maktab-internati haqida yozishni rejaga kiritishni tavsiya berdi. Bu, menga ma'qul bo'ldi va maktab hayoti bilan yaqindan tanishishni maqsad qildim. Aytganlaridek, eshitgan boshqa, ko'z bilan ko'rgan boshqa ekan...**

# MILLATNING OLTIN POYDEVORI

Erta tongdan manzil sari yo'lga otlandim. Qizilqum kengliklari, cho'l shabadasi, endigana boshlantgan bahor tarovati qalbimga huzur bag'ishladi. Anchadan so'ng hamrohimlarimdan biri "yorildi". Suhbatga kirishdik. Onaxon ham o'zimiz tomondan ekan. Gurungdan ma'lum bo'ldiki, u ko'p yillar Zarafshon shahrida o'qituvchi bo'lib ishlagan, hozir nafaqada, Navoiy shahrida yashar ekan. Shu boisdan bo'lsa kerak, gurungimiz qo'r oldi.

- Jurnalistmisiz!?

Hamrohimning dabdurustdan bergan savoliga ajablanib qoldim.

- Qayerdan bildingiz!

- Qiziquvchanligingiz, qo'lingizdagi daftar-ruchkadan.

Keyin safar maqsadimni aytdim.

-Zarafshondagi o'zgarishlar haqida yozishga borayotgan ekansizda!?

- Shunday.

- Bilasizmi, Zarafshon - haqiqiy konchilar maskani. Uning rivojida kombinatning alohida hissasi bor. Buni xalq yaxshi biladi.

E'tirofdan quvonib ketdim. NKMKning hudud infratuzilmasini yaxshilashga qo'shgan hissasi xayolimdan birma-bir o'tdi...

Bugun bu obod maskanning qayeriga bormang, aholi uchun qulay turmush sharoiti yaratishga qaratilayotgan e'tiborni ko'rasiz va bu shu yurt odamlariga cheksiz shukronalik bag'ishlamoqda. Favvoralar sayilgohi, akvapark, suzish havzasi, imkoniyati cheklangan bolalar uchun "Umid" zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti, ixtisoslashtirilgan maktab-internat – bugun shahar ko'rku-tarovati, obodligi, aholi farovonligi, go'zal hayot tarzining ko'zgusiga aylangani haqiqat. O'y-fikrlar, gurung og'ushida vaqt o'tgani, uzoq masofa bosib o'tilgani, manzilga qanday yetib kelganimizni ham bilmay qoldim...

* * *

O'quv dargohi direktori Nargiza Ravshanova iliq qarshi oldi. Salom-alikdan so'ng, maktab-internat faoliyati bilan tanishishga taklif etdi. Dars jarayoni davom etayotgani bois, o'quv maskani koridorlarida sukunat hukmron edi. Opa yo'l-yo'lakay bu dargoh haqida batafsil, to'lqinlanib so'zlab berdi.

- Opa, olis manzillarda ham mana shunday muassasalar qad rostlashi qanday quvonarli-a?!

- Nimasini aytasiz, yurtimizda ta'limga, yoshlar kelajagiga e'tibor va qarashlar o'zgardi. Yangilanishlar ruhi bizning konchilar maskaniga ham kirib keldi. O'tgan yili foydalanishga topshirilgan 504 o'rinli mazkur maktab-internatimiz buning isboti, desak yanglishmayman.

- Aytishlaricha, ta'lim dargohiga kirish shaffof, belgilangan talablar, sinov-imtihonlar asosida bo'lib o'tibdi. Kirish imtihonida Navoiy, Zarafshon shaharlari, Uchquduq, Tomdi, Nurota, Navbahor, Xatirchi va Qiziltepa tumanlaridan 3 mingdan ortiq o'quvchi hujjat topshirib, shundan, eng bilimli, yuqori intellektual salohiyatga ega 300 nafar o'g'il-qiz shu muassasasa o'quvchisi, degan sharafli nomga sazovor bo'libdi.

- Xuddi shunday, o'qituvchi-pedagoglar ham belgilangan mezonlar asosida tanlab olindi. Ya'ni, ular belgilangan talablardan kelib chiqib, 36 nafar malakali o'qituvchilar uch bosqichli tanlov asosida ishga qabul qilingan, deya suhbatni davom ettirdi Nargiza opa. - Ularning 11 nafari oliy toifali bo'lsa, 25 nafari birinchi va ikkinchi toifali. Ingliz tilidan dars beruvchi 6 nafar o'qituvchilarimizning barchasida mazkur tilni bilish darajasi bo'yicha ham milliy, ham xalqaro sertifikatlar bor.

O'quv jarayonlariga xalaqit bermaslik maqsadida tanaffusgacha kerakli jihozlar bilan to'liq ta'minlangan zamonaviy sport zali, oshxona, kutubxona, yotoqxona sharoitlari bilan tanishdim. Ta'lim maskani hududi va binosining ko'rkamligi, orastaligi har qanday kishining bahri-dilini ochib yuboradi.



Tanaffus paytida esa sinf xonalariga kirib, yosh avlodga yaratilgan sharoitlar bilan tanishdim, o'quvchi va murabbiylar bilan suhbatlashdim. Har bir xona ma'lum bir fanga mo'ljallangan bo'lib, shu fanga oid ko'rgazmali qurollar, jihozlar bilan bezatilgan. Qanday qilsam o'quvchilarimni qiziqishlarini yanada oshirarkanman, deya o'z ustida tinimsiz izlanayotgan pedagoglar sinflarning darajasidan kelib chiqib, interfaol uslublardan foydalangan holda bolajonlarga dars o'tishayotgani o'quvchilarning bilim darajasini oshirishga xizmat qilayotgani quvonarlidir.

Ha, o'quvchilarni xalqaro ta'lim standartlariga muvofiq o'qitish, ijodkorlik qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirish, umuminsoniy va milliy qadriyatlar, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun shart-sharoitlar, keng imkoniyatlar yaratib berilgani bilimga chanqoq o'g'il-qizlar uchun ilm dunyosini kashf etishga turtki bo'layapti.

**Dilorom Qudratova, ingliz tili o'qituvchisi:**

– O'quvchilarimiz ilmga chanqoq, zukko, intiluvchan va nihoyatda qobiliyatli yoshlar. Davlatimiz tomonidan ularning bilim olishlari, kelajakda ajdodlarimizga munosib vorislar bo'lib yetishishlari uchun barcha shart-sharoit va imkoniyatlar yaratib berilgan. Maktabimizda har bir fan uchun maxsus sinfxonalar eng zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan. Har bir o'quvchining alohida kompyuter bilan ta'minlanganligi ularning o'z ustida yanada tinimsiz ishlashlari uchun yaxshi imkoniyatdir.

**Gulnoza Qarshiyeva, matematika fani o'qituvchisi:**

– Hozirgi davrda biror sohani matematikasiz tasavvur etish qiyin. Matematika juda qiziqarli, o'quvchilarning tafakkur olamini rivojlantiradigan fan. Kelajakda yetuk insonlar bo'lib kamol topishida muhim o'rin tutadi. Bu fanni bilgan o'quvchi boshqa fanlarni ham oson o'zlashtiradi. O'quvchiga bilim berish, dars mazmunini boyitish, dars jarayoniga qiziqarli mashg'ulotlarni singdirish, vaqtdan unumli foydalanishga harakat qilaman. O'quvchilarim iqtidorli, ularning har biri darsda o'z fikrlarini, munosabatlarini erkin bayon etishlariga imkon beraman.

Asilbek o'z oldiga yuksak marralarni qo'yib, ularga erishish yo'lida tinimsiz izlanayotgan, ustozlari ishonchini qozongan umidli yoshlardan biri.

**Asilbek Yo'ldoshev, 10-sinf o'quvchisi:**

– Men bu yerda o'qishni orzu qilgan edim. Mana, orzularim amalga oshganiga guvoh bo'lib turibsizlar. Ota – onamning bilim olishim uchun yaratib bergan sharoitlari tufayli bu dargohga o'qishga kirdim. Bolaligimdan matematikaga qiziqqanim sababli, kelajakda shu yo'nalish bo'yicha bilimimni oshirib, xalqaro sertifikatga ega bo'lib, nufuzli oliygohlarga o'qishga kirish niyatim bor. Tengqurlarimning ham quvonchlari cheksiz, ayniqsa ota-onalarimiz xursandchiligini aytmaysizmi, bizdan-da ko'p hayajonda! Zamonaviy jihozlangan bilim dargohida o'qish har birimizga faxr-iftixor tuyg'usini berayapti. Kelajakda tanlaydigan soham bo'yicha



salmoqli ishlarni amalga oshirish orzusidaman. Yurtimiz ravnaqi yo'lida xizmat qilish uchun bor bilimimizni sarflaymiz.

Har bir sohaning yetuk mutaxassisi bo'lish uchun avvalo poydevor mustahkam bo'lishi kerak. Shu maqsadda, bu dargohda yoshlar malakali o'qituvchilar-ustozlarga biriktirilgan. Balki shundan bo'lsa kerak, ota-onalarning bu holdan quvonchlari cheksiz, ko'ngillari xotirjam, o'g'il-qizlarining kelajagiga ishonchlari yuksak.

**Maktab-internati o'quvchisi Kamolaning onasi Oysulton opa:**

– Ta'limga qaratilgan e'tibor albatta o'z samarasini beradi. Farzandimning qobiliyatini inobatga olib, kelajakda chet ellarda o'qishini istayman. Qizimni bu bilim dargohida o'qiyotganligi bois, bu yo'lda dastlabki qadam qo'yildi, deb o'ylayman. Qiz bolaning bilim olishi, o'qishi, saviyali bo'lishi butun bir jamiyatga ta'lim berish bilan teng. Ziyoli qiz kelajakda butun boshli oilaning ilmli bo'lishiga zamin yaratadi. Qizim Sevara yoshligidan maqsadlari va orzu-intilishlariga erishish yo'lida o'z ustida tinimsiz mehnat qilayapti. Oilamizda unga sharoit yaratib berganmiz. Ba'zi bir oilalarda ko'p kuzatganman, qiz bolani go'dakligidanoq o'qimishli bo'lishidan ko'ra, uni ro'zg'or yumushlari bilan band qilib tashlashadi. Mehnatga o'rgansa yaxshi, albatta, lekin qizlarning o'qishiga alohida e'tibor qaratish, orzu-umidlarini hurmat qilishimiz judayam muhim. Kezi kelganda aytish o'rinliki, ba'zi ota-onalarga qizlarining xohishlarini inobatga olishlarini, rivojlanishlariga imkon berishlarini aytgan bo'lardim.

Bu, shunchaki gaplar emas, balki qalb so'zlari edi. Birgina ota-onaning farzandlari ta'limiga qaratayotgan e'tiborlari ko'pchilikka ibrat namunasi bo'lgulikdir.

O'quvchilar darsdan so'ng nimalar bilan band bo'lishadi, degan savol nazari bilan direktor Nargiza opaga yuzlandim...

- O'quvchilar yotoqxona va 5 mahal ovqat bilan ta'minlangan. Bundan tashqari bolajonlar haftaning 5 kuni davomida bu yerda ham o'qib, ham yashaydilar. Maktab-internatida aniq va tabiiy yo'nalishlar, ingliz tili, sport va shaxmat-shashka, rassomchilik, tikuvchilik, drama, jurnalistika, robototexnika to'garaklari ham tashkil qilingan. O'quvchilarning kitobga bo'lgan qiziqishini orttirish maqsadida haftaning seshanba va juma kunlari "Kitobxonlik soati", har payshanba kuni esa "Zakovat"intellektual o'yini o'tkazilishi odat tusiga kirgan. Maktab-internati qisqa davrda yuqori natijalarga erishdi. Jumladan, o'quvchilar jamoasi "Zakovat"ning viloyat bosqichida faxrli o'rinni egallab, respublika bosqichida ishtirok etishga muvaffaq bo'ldi. Shuningdek, 5 tashabbus olimpiadasi doirasida o'tkazilgan "Yosh kitobxon" tanlovining Zarafshon shahar bosqichida 7-sinf o'quvchisi D.Xolmatova, "Tarix qa'ridagi ikki yulduz" insholar tanlovining viloyat bosqichida 7-sinf o'quvchisi N.Xayrullayevalar faxrli 2-o'rinni egallashdi. Yaqinda Prezident maktablari va ixtisoslashtirilgan maktab-internatlari o'quvchilari uchun tashkil qilingan STEAM (fizika, kimyo, biologiya, sayns, matematika va informatika) olimpiadasining viloyat bosqichida 4 nafar o'quvchilarimiz muvaffaqiyatli ishtirok etib, faxrli o'rinlarni egallashdi. O'qituvchilar uchun o'tkazilgan "Lider o'qituvchi" olimpiadasida maktab-internatimiz kimyo fani o'qituvchisi Sh.Abduraxmonov viloyat bosqichida faxrli 3-o'rinni egallab, respublika bosqichida ham faol ishtirok etdi. Matematika fani o'qituvchisi G.Qarshiyeva matematika xalqaro GRE sertifikatiga, 10-sinfning ikki nafar o'quvchisi ingliz tilidan CEFR imtixonidan C1 darajasidagi sertifikatni qo'lga kiritdi.

Ha, bu maktab-internati ustoz-murabbiylarining zimmalariga katta mas'uliyat yuklangan. Ular buni chuqur anglagan holda shunday nufuzli dargohda ishlayotgani, qorako'zlarimizni bilim olishlari uchun munosib hissa qo'shayotganidan behad faxrlanishadi.

Yangi O'zbekistonning yuksak taraqqiyotini ta'minlashda mazkur bilim va tarbiya maskanining iqtidorli yoshlari hal qiluvchi o'rin tutishi muqarrar va ulardan pedagogik jamoa, ota-onalarning umidi katta.

Safarim yakunida bir olam yangi taassurotlar bilan qaytar ekanman, bu qutlug' dargohda bolajonlar emin-erkin ta'lim olib, Yangi O'zbekistonimiz kelajagi yo'lida kamolga yetishi uchun barcha sharoitlar yaratilganidan shodlandim. Bolajonlarning har bir yutug'i va muvaffaqiyati zamirida jonkuyar ustozlarning mehnati yotganini dildan his qildim. Shunday ustozlarimiz bor ekan, yosh avlodning ertasi yanada nurafshon bo'lishiga ishongan holda, xayolimdan Firdavsiyning quyidagi satrlari o'tdi: Ilmdan bir shu'la dilga tushgan on, shunda bilursankim, ilm bepoyon.

**Dildora KARIMOVA.**

■ Nuqtai nazar

**Sarlavhadagi mana shu ajnabiy so'z negadir takror-takror quloqqa chalinayapti. Ba'zan yaxshiliklar, ko'pincha esa beo'xshov holatlarning jamiyat orasida shiddat bilan tarqalishida buni kuzatish mumkin. Meni o'ylantirgan narsa esa boshqa masala, ya'ni mutolaa madaniyatining ommalashishi kutilgandek emasligi va hatto tobora susayib borayotgani. Buning asl sabablari qayerda?**

# KITOB O'QISH "TREND"GA AYLANADI. AGAR...

Aslida, kitobsizlik nafaqat biz yashayotgan jamiyatga xos, balki dunyoda kechayotgan jarayon. AQShdagi tahlil va maslahat kompaniyasi — Gallup turli mavzularda butun dunyo bo'ylab ijtimoiy so'rovlar o'tkazib kelishi bilan mashhur. Mazkur ilmiy markaz kitob o'qishning kamayib borishini tadqiq qilganda quyidagi xulosalarga kelgan: amerikaliklar hozirda yil davomida o'rtacha 10 dona kitob o'qimoqda. Bu raqam kattalar o'rtasida 2000 va 2015-yillarga qaraganda taxminan ikki yoki uch marotabaga kamroq. Buning sabablari esa kitob o'rnini uyali telefon va ijtimoiy tarmoqlar tobora egallayotgani bilan izohlanmoqda.

Bizda esa taxminlar ko'p, ammo aniq raqamlar qanday ekan?..

**NABIRA VA UCH JAVOBSIZ SAVOL...**

Dam olish kuni nabiram bilan shaharni aylanishga chiqdik. Navoiy shahrining markaziy ko'chasi bo'ylab chaqchaqlashib ketarkanmiz, harflarni endigina taniy boshlagan mitti hamrohim binolar bo'ylab peshtoqlardagi tasviriy vositalarga bir-bir qararkan, qo'ng'iroqdek ovozi bilan so'zlarni talaffuz qilar, ayrim tushunmaganlarini qayta-qayta mendan so'rardi. Ko'pqavatli uylarning biri ro'parasida to'xtadik. Devor bo'ylab qarshimizda katta-katta harflarda ifodalangan "sevgi izhorlari"! Nabiram birdan mendan so'rab qoldi: "Buvijon, sonlarni qo'shish mumkin, harflarni ham qo'shsa bo'ladimi?" Kutilmagan so'roqdan boshim gangib qoldi. Indamay uni yaqin hududdagi kitob rastasi tomon yetakladim. Aslida niyatim bolalarga xos kitob xarid qilish edi. Tijorat taqozosi tufayli bo'lsa kerak, muqovalarida yelkalarigacha ochiq ayollarning ehtirosli chehralari, qurol niqtagan erkaklarning beshafqat qiyofasi tushirilgan kitoblarga ko'zim tushdi: sarlavhalar ham vahimali! O'zbek xalq ertaklarini izladim. Buning o'rniga esa multfilm qahramonlari suratlari tushirilgan qator-qator kitoblar uchradi. Ichimda talay savollar tug'ilib, xunobim oshdi! Nahot ertak kitob topolmasam! Ortimga o'girilib qarasam nabiram oyoq uchida turib, teparoqdagi peshtoqdagа kitobga qo'l uzatayapti ekan — "Kalila va Dimna"! Ikkilanmay, shu kitobni xarid qildim.

Sport pavilyoni yonidan o'tayotganimizda, yoshgina qiz va yigit sigaret chekishayotganini ko'rdik. Nabiram menga qarab "vuy... qizlar ham chekarkanda...", deb qo'ydi. Men uning bu savoliga "hamma narsaga ahamiyat beraverma", deya tanbeh bergan bo'ldim. Ko'nglimdan esa "Onalar, sizlarni moddiy ta'sir — jismingizni garddan ham asray oladi, ammo qalbingiznichi?..", degan fikr o'tdi. Rosa bozor aylanib, taksida ortga qaytishga qaror qildik. Mashinaga o'tirishim bilan haydovchi "pleyer" qulog'ini burab, qo'shiq ovozini balandlatdi. "Kayfuyem!" Ana shunday deb xonish qilardi xonanda! Yonimizdagi yosh juvon go'yo mast bo'lib qo'shiqni eshitar, "shu qo'shiqni telefonimga gudok o'rniga ham o'rnatganman", deya dugonasiga maqtanardi. Nabiram darrov mendan so'radi: "Bu qanday qo'shiq o'zi? Shuncha zo'r bo'lsa, siz ham telefoningizga ko'chirib oling". "Yo'q" ma'nosida boshimni silkidim xolos, na haydovchiga, na kuyga e'tiroz bildira oldim.

...shu kuni uyga ruhan toliqqan holda kirdim. Meni eng ko'p qiynagan narsa nabiramning biror savoliga javob berolmaganim bo'ldi...

**MENI HAYRATGA SOLGAN AVSTRIYA!**

Kitob — faylasuf uchun keng fazo, aql uchun buyuk mashq maydoni, muxlis uchun unutilmas xotira, ma'nosiga tushunadiganlar uchun buyuk ibrat xazinasi, qorong'u yo'lda yo'ldosh... Kitob haqida yana ko'plab ta'riflarni keltirish mumkin. Universitetda talabalarga dars berarkanman, yoshlarning oxirgi o'qigan kitobi qaysiligi masalasi hamisha men uchun qiziq bo'lib kelgan. Javoblar esa ko'pincha achinarli! Bu holatga sabab esa, avvalo televizorda kitob reklamasining yo'qligi, deb bilaman.

Har yakshanba ko'chaga chiqib, turmush tashvishlari bilan yurgan yurtdoshlarimizni kuzatarkanman, 2002 yilda "Ustoz" jamg'armasi granti sovrindori sifatida Avstriyada ko'rganlarim bot-bot yodimga tushadi.... Dam olish kuni bo'lsa-da, do'konlar yopiq, odamlar esa parklarga, muzeylarga, kitob yarmarkalariga oshiqardi. Bizning hayotimiz esa faqat ishxona, uy va bozordan iboratdek! Uyga kirib, yana shu televizorga tikilaman. Biror kitob, muzey yoki teatr haqidagi ko'rsatuvni axtaraman...

**KITOB O'QISH HAM QOBILIYAT**

Qobiliyat — ma'lum bir yangi odatni puxta o'zlashtirish, o'z mahorati, tayyorgarligi yoki boshqa takroriy xatti-harakati tufayli hosil bo'lgan malaka. Jumladan, kitobxonlikni ham o'zlashtirilgan ko'nikma, deyishimiz mumkin. O'qish dastlab mashaqqatli bo'lishi mumkin, inson tafakkuriga ma'nolar, badiiyat, so'zlarni zudlikda taniy olish va tez o'qish bo'yicha dastlabki bilimlar shakllangach, ruhimiz singdirishga odatlangan ma'no ko'lamini yana istayveradi. Shu tariqa tafakkur ko'lami o'sib boradi.

Biror xatti-harakatni kundalik hayot tarzingizga kiritish odatlar orqali shakllanadi. Bu aslida ruhiy tarbiya bilan bog'liq. Oldimizda faqat ikki yo'l bor: ma'naviyatimizni o'zimiz, o'z qo'limiz bilan tarbiyalash va yoki tashqi ta'sirlarga berib qo'yish. Balki mana shu odatlarni hayot tarzimizga kiritsak, nabiralarimizni kitob rastalari tomon yetaklasak, kechki dasturxon atrofida serial emas, badiiy asarlar muhokama qilina boshlaydi. Axir, bu yoshlarimiz kelajagi bilan bog'liq masala! Ana shunda mutolaa "trend"ga aylanadi...

**Saodat BOZOROVA,**
**Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti professori.**

■ Культура

# СПЕКТАКЛЬ ДЛЯ ЮНОГО ЗРИТЕЛЯ

В городе Навои на сцене Театра юного зрителя прошел детский спектакль «Уткир шохли букача» для детей работников АО «НГМК». Такой подарок детям сделал Совет профсоюза комбината.

Актеры спектакля-мюзикла «Уткир шохли букача», поведали юным зрителям свою историю добра, дружбы, взаимопомощи и победы над злом. Заводные песни и танцы, веселые шутки и замечательные актеры не оставили равнодушным никого.

Особенностью постановки стало использование интерактива, что особенно понравилось детям. Актеры на протяжении всего спектакля общались с юными зрителями, просили их совета и помощи, выходили к ребятам в зал, привлекая их этим к непосредственному участию в постановке.

Продолжительность мюзикла в 45 минут тоже хорошо продуманная акция. Будь спектакль длиннее, внимание детей было бы сложно удержать.

Напомним, для навоийцев открытие ТЮЗ – масштабное культурное событие. Театр стартовал с июня 2023 года, постепенно расширяя репертуар и границы зрительской аудитории.

**Ситора ЯТИМОВА.**

KONCHILAR HAYOTI
MUASSIS: "NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI" AJ

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2022-yil 4-fevralda 1521-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

Muharrir: **Nizomiddin SADRIDDINOV**

ISSN 2010-5266

**Tahririyat manzili:** 210100. Navoiy shahri, Navoiy ko'chasi, 27-uy, "NKMK" AJ boshqarmasi
**Telefonlar:** Muharrir: 79 227-74-64. Faks: 79 227-75-66

Gazeta har oyda ikki marta chop etiladi va "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ, "Navoiyuran" DK, "NKMK jamg'armasi" DM bo'linmalariga tarqatiladi. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazeta "Konchilar hayoti" gazetasi tahririyatida terildi va sahifalandi. "Noshir Lux" MChJ bosmaxonasida ofset usulida bosildi. Nashr sifati bo'yicha (91) 557-10-95 raqamli telefonga murojaat etishingiz mumkin. **Bosmaxona manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Navbatchi: **Nasiba SHAMURATOVA**
Texnik muharrir: **Zafarjon OLIMOV**

Qog'oz bichimi A2. 12100 nusxada chop etildi. Buyurtma № 147. 2024-yil 18-mart 17:00 da chop etishga topshirildi.